


YAZILIMI TILING UZBEKISTON
TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI,
QIYOSIY TIPOLOGIK IZLANISHLAR
VA ADABIYOTSHUNOSLIK
MUAMMOLARI

MATERIALLAR
TO'PLAMI
XIV



UO'K 81'373

81.2-3

G 13

Gadoeva, M.I.

Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari [Matn] : materiallar to'plami, VII / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi: M.I.Gadoeva; mas'ul muharrir: Z.I.Rasulov; Buxoro. "Durdona" nashriyoti, 2023 yil. 252 bet.

KBK 81.2-3

To'plamda Respublikamiz olimlari, ilmiy tadqiqotchilarining filologik mavzular doirasidagi, jumladan, musyyyon til doirasidagi lingvistik qarashlari; qiyosiy-tipologik izlanishlari; tillarni o'qitish nazariyasi va millat, milliy madaniyatning amaliy globallashuvi davrida tildan foydalanish muammolari, shuningdek, tillarni o'qitish usuliyoti; adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik istiqbollari borasidagi fikr-mulohazalarini o'z ifodasini topgan.

To'plam filologik yo'nalishdagi ilmiy izlamuvchilar, katta ilmiy xodim izlamuvchilar, tadqiqotchilar, magistrantlar va talabalarga mo'ljalangan.

Tahrir hay'ati:

*Xamidov O.X., (BuxDU professori), Rasulov T.X. (BuxDU professori),
Haydarov A. (BuxDU professori), Gadoeva M.I. (BuxDU f.f.d. (DSc),*

*Mas'ul muharrir: Rasulov Z.I. (BuxDU f.f.d. (DSc),
Mas'ul konib: Djumaeva N.Dj. (BuxDU f.f.d. (PhD))*

*To'plovchi va nashrnga tayyorlovchi:
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent M.I.Gadoeva
Taqrizchilar:*

*Davlatova M.X., Buxoro davlat tibbiyot instituti inglez tili kafedrasi
dotsenti, f.f.f.d. (PhD)*

*Qobilova N.S., BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.
(PhD)*

To'plamdan o'rinni maqolsalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligi, mazmuni, saviyasi va savodxonligi uchun mualliflarning o'zları mas'uldirlar.

BuxDU Ilmiy texnik kengashining 2023 yil 23 fevraldagagi 3-souli navbatdan tashqari yig'ilish qarori bilan nashrnga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9329-9-9

*Tilning leksik-semantic tizimi, qiyusiy tipologik izlanishlar va
adabiyotshunoslik muammolari*

Juraeva Makhliyo Rashidovna. Representation of a symbol in intercultural communication	65
Rakhmatova Mehriniso Musinovna. Buronova Guzeloy. The role of pragmatic competence in language learning at bukhara state university.	69
Rakhmatova Mehriniso Musinovna, Bekmurodova Marjona. How english language learners improve their sociolinguistic competence	72
Raxmatova M.M., Yuldasheva Nigina. Problems faced by second language learners in uzbekistan when acquiring sociolinguistic competence	75
Xayrullayeva Gulasal. Intensivlik semantic-pragmatik kategoriya sifatida	79
Rajabova Maktuba. Structural and semantic analysis of english phraseological units with the meaning "Human character"	83
Sayitova K.H. Effect of time management on teaching and learning foreign languages	86
Караматова Зарина Фатиллоевна. Жаҳон адабиётида элегия жанри. 88	
A.A.Haydarov, D.U.Mansurova. Intonatsiyaning tasnifi va uslubiy xususiyalari	91
Umurova Xushvaxt Hakimovna, Qahhorova Guli. Yozuvning tilshunoshik va ruhshunoshik masalalari	94
Muxammadriyeva Nigina Maximudovna. Emotivlik funksional-semantic kategoriya sifatida ifodalinishi	96
Navbahor Nazarova. Tilshunoslikda antroponimik birliklarning nazariy tadqiqi	99
Abdullahayeva Gulnora Gaybulloyevna, Mirshayeva Nilufar Ilhom qizi. Kichik yoshlarning chet tilini o'rganishiida yosh xususiyatlarning ahamiyati	102
Зарина Ҳабибовна Усмонова. Тарзимада таржимон улутли ва тарзима хусусиятлари	105
Ubaydullahayeva Muattar O'rinnbekovna, Teshayeva Zebo Ilhomovna. Tilda lakumalarning ishlatalishi hamda o'ziga xos xususiyatlari	108
Sadikov Erkin Tursunovich. Inkomi ifodalovchi nutq aktlarining umumiy tafsifi	111
Saparova Mohigul Ramazonovna, Ruzimurodova Marjona. The importance of body language in communication	118
Зарентор Ҷалитова Баходировна. Шахс ва жой номларининг гул номлари орқали ифодаланиши	120
Rasulova Nigina Alisherovna. Definitions given to the concept of "linguistic person" in modern linguistics	123

Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik ijlanişlari va adabiyotishunoslik shartmolari

qiziqarli va aktual bo'lsagina, dasming mazmuni hamda maqsadi o'rganuvchilarga tushunari va esda qolarli bo'ladi.

Chet tili o'rganuvchilari chet tili ta'limida o'zga bir chet tili, ma'daniyat bilan to'qnash keladilar. Shu sababdan, mashg'ulotlarda aynan o'sha chet tiliga xos bo'lgan autentik materiallardan, o'sha madaniyatni yetkazib bera oladigan matn va dabriyotlardan foydalanish tavsiya etiliadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yuxati:

1. Ahrorovna, N. N., & Marjona, M. (2021, November). Essential Memory Improving Techniques in Teaching and Learning Process. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 62-68).
2. Xolmatova, Malika Ibadullayevna. "Umumtalim maktablari ingliz tilii darslarida Chet tili ko'nikmalarini rivojlantirish." Science and Education 3.2 (2022): 999-1005
3. Yakubov, Fazliddin Utaganovich. "Improving communicative language skills through role playing activity." Science and Education 3.2 (2022): 1006-1010.

Зарина Ҳабибовна Усмонова,

Инглиз тилинун ослиги кафедраси катта ўқитувчиси

ТАРЖИМАДА ТАРЖИМОН УЛУШИ ВА ТАРЖИМА

ХУСУСИЯТЛАРИ

Таржима амалиёти пайдо бўлибдики, аслиятни она тилига кандай ўтириш лозим - сўзма-сўзми ёки эркин тарзицами - деган масала таржимонлар олдиша кўндаланг турган муаммо саналади. Айrim шахслар, масалан, XX asrning бошларида исход юнгланган санъаткорлар, сўзма-сўз таржимани ёклаб чиқсанлари холда, амалий фаолиятларица шу усуидан кўпроқ фойдаланиб келган бўлсалар, кўпчилик исходкорлар эркин таржимани афзал кўриб, санъаткор аслиятнинг харfinи эмас, рухини, сўзини эмас, мазмунини, шаклини эмас, унда музассамлапланган ахборотни бера билини керак деган нуткни назарни олга сурганилар. Аммо масалани назарий хал килиши лозимигиги хеч кимнинг хаётига келмаган.

Таржиманинг мақсади, китобхоннинг савиаси ва дили, матн тури каби катор масалалар мухокама кун тартибига кўйилмаган. Назарий зоссанинг ишланмаганлиги таржима жараёнига турлича ёндаштини келтириб чиқарган. Бу, ўз наебатида, катор таржима турларининг вужудга келишига сабаб бўлганни, уларнинг айримлари исходий-илемий, бальзипари иллатли деб тан олинади. куйида уларнинг айримлари хакида фикр коритилади.

MATERIALLAR TO'PLAMI

XIV

"Инсон аклий фаолинатининг иккни соҳаси – фан ва адабиёт, бу соҳаларда қалам тебратувчи иккни қалб эгаси – олим ва адабининг меҳнати ўртасидаги умумийлик табиат ва жамият ходисаларини тасниф килиши ва тасвирлаш, таракхиёт ва маънавий камолот йўлида жамият манбаатларига хизмат килишдан иборат."¹¹

Хозирги кунда инглиз тилидан ўзбекчага бевосита таржима кила оладиган ҳакимий мутахассис санъаткорларининг йуклиги сабабли инглиз тилида исход кишиган муалиффлар асарлари ўзбек тилига ҳамон рус тили орқали ўтирилмоқда. Бу таржима жараёнича мұкаррар йул күйиладиган нұксонлар мөндорининг иккни баравар ошиб кетишга олиб келмоқда. Бирок кўпчиллик мөхир таржимонларимиз асарлар руҳига чукурроқ кириб бориш ва бу руҳиятни ўзбек тилига юкори маҳорат билан талдиғин этиш воситасида таржимавий қусурлар олдиға маълум даражада шарда тутиб келмоқдалар.

Жумлалан, мөхир таржимонимиз Амир Файзула таржимасига мансуб Рэй Бредберининг "Марсга хужум"¹² романни ҳам билвосита таржима назмунаси бўлиб, руечадан ўзбек тилига ўтиришган. Таржима жараёнича, одатда мұкобиллар маъноси кўп ҳолларда контекстта боғлиқ бўлади, аммо луттатта мурожаат килиши ҳам муҳимдир. Таржима хусусияти таржимада сўз маъноларини таҳминий таржима килишга йўл кўйилмайди. Сўз ва унинг маъноларини таржимон яхши билishi ёки уларни луттатдан топishi шарт. Акс колча таржимон "таржимонининг сомта дўстлари" тузогига тушини мұкаарар.¹³ Таржимадаги асарда таржима хусусияти ва таржимон улуши ҳакида сўз борар экан, "Таржимон меҳнатини ҳеч качон ҳеч кочин ишоничи даражали деб тушунмаслик керак. Унинг меҳнати ёзувчи меҳнати билан баробар. Улут Гумбольдинг "тил – фаолият"¹⁴ деган машхур афоризми хамоидан кўра кўпроқ таржимонларга тегишилди. Таржимон тилни харакатта келтиради.¹⁵ 1996 йилда Динора Султонованинг аслиятдан бевосита амалга оширган катор инглиз шоирлари шеърлари таржимаси «Фароғат» номи билан нашр этилди. 2003 йилдан эътиборан Узбекистон телевидениеси орқали тақорор ва тақорор намойиш этилаётган Япония кино ножодкорларининг

¹ Гайбулла Саломов. Таржима ташвиши. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат наурасты, 1983. – 15 б.

² Рэй Бредбери. "Марсга хужум". "Лоти яср мазоди". – 2016 йил. – 6. Б.

³ I.G'офигот, O.Mo'minov, N.Qambarov. Тажиша вакоғиузи. – Тошкент: "Tafakkur bo'stoni", 2012. – 104 В.

⁴ Гумбольдинг Вильзельм фон. Избранные труды по языкоизанию. – Москва, 1984. – 61 с.

⁵ I.G'офигот, O.Mo'minov, N.Qambarov. Тажиша вакоғиузи. – Тошкент: "Tafakkur bo'stoni", 2012. – 104 В.

Tilning leksik-semanitik tizimi, qiyosiy tipologik ijanishlar va adabiyotshunoslik miattmolari

«Ошин» номли кўп серияни кинолентаси ўзбекчага инглиз тилидан Хулкар Аъзам томонидан воситати тил ёрдамисиз тўтиридан-тўтири оби-тобида таржима килиндиши, бу бошлаб юборилган ижобий жараённинг илк меваларицир.

Хуллас, мамлакатномизда билвосита таржимадан бевосита таржимага ўтиш жараёни бошлаб юборилиши. Бу сайд-харакат ўзбек китобхонларининг жаҳон адабиёти дурдоналари намуналари билан батафсилик танишишлари учун имконият яратиб бериш бараварида яхин келажакда ташкил ва ташвиш учун хам шубҳасиз зарурий материал ҳозирлай олади, деган умиддамиз.

Қайд китни зарурки, мамлакатномизда кўп эсрлик тарихий дазр мобайнида жуда катта бадиий-адабий, тарихий, ахлоқий, фалсафий, илмий, диний асарлар ўзбек тилига ўтирилиши. Адабиётномиз тарихининг катта улушини ташкил этадиган бундай бойлизни итмий-танликий ўрганиб, натижасини таржима амалиётига жорий этиши таржимачилик ишонининг юкори савиясини белгилайди.

Жек Лондоннинг «Ҳәётта муҳаббат» хикояси 1958-йилда Феттоҳ Абдуллаев томонидан ўзбек тилига ўтирилиб нашр килинган. Инглиз адабиётидан килинган жуда кўшлаб асарлар рус тили орқали ўзбек тилига ўтирилиб келинган. Бу эса рус таржимони томонидан зытибордан четда колган аслиятдаги муҳим прагматик белгиларни ўзбек таржимони томонидан хам таҳрорлаништига, айрим холларда эса янада кўшолрок хатоларга йўл қўйиништига сабаб бўлган. Ахмо бу билан ўзбек таржимонини айблаб бўлмайди. Улар инглиз тилини билмаса-да ўзбек китобхонларини инглиз адабиётининг ажойиб дурдоналари билан таништириб, маданиятлараро коммуникасияни замалга оширишга ўзларининг муносабиҳ хиссаларини кўшиб келмоқда. Америка ёзувчиси Жек Лондоннинг «Ҳәётта муҳаббат» хикояси ўзбек таржимонлари туфайли кўшлаб китобхонларининг севимли асарига айланган.

Аслиятнинг прагматик хусусиятларини таржимада қайта яратишча таржимоннинг аслият матнига нейтрал бўлиши талаб этилади. Акс холда таржимоннинг шахсий муносабати таржимада аслият мазмунига шутур етказилиши ва исталған натижага эриншилмаслиги мумкин. Баъзан аслиятдаги прагматик мълонин саклаб колиши учун, тилни мукаммал билинишнинг ўзи камлик киласи, чунки баъзи сўзлар матнда лугатларда кўрсатилмаган мълоноларда кўллашган бўлалиши ва бундай сўзли жумлаларни контекстдан келиб чиқсан холда таржима килиншига тўғри келади. Яъни бу каби сўзларнинг мъносиини контекстни ўрганиб чиқиб билиб олиш мумкин.

MATERIALLAR TO'PLAMI

XIV

Адабиётлар рўйхати:

1. Гайбулла Саломов. Таржима ташвишилари. – Тонкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 15 б.
2. Рэй Брэдбери. “Марса хужум”. “Янги зер ахоли”, - 2016 йил. – 6. Б.
3. I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: “Tafakkur bo'stoni”, 2012, – 104 В.
4. Гумбоольт Вильгельм фон. Избранные труды по языкоznанию. – Москва, 1984. – 61с.

*Ubaydullayeva Muattar O'rzbekovna,
BDU, Ingliz tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi
Teshayeva Zebo Ilhomovna,
BDU, Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi talabasi
**TILDA LAKUNALAR Ning ISHLATILISHI HAMDA O'ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI***

Kalit so'zlar: Lakuna, konsept, terminlashuv, konkretlashuv, realiya, muqobilsiz so'zlar, xarakterli so'zlar, leksik ifoda.

Biror xalqning maishiy-madaniy, ijtimoiy va tarixiy madaniyatini uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo'lmasan, so'z va so'z birikmalari lakuna hisoblanadi. Lakuna tenmini ilk bor kanadalik tilshunoslar tomonidan fanga kiritilgan. J.P Vine va J. Darbellar lakuna tenmini haqida quyidagicha ta'rif keltingan: “ Bir tildagi so'z boshqa tilda o'z muqobilini topa olmagan o'rnlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi”.[1] “V.G. Gak lakunalarni “tilning leksik tizimidagi bo'shiqlar, bor bo'lishi kerakdek ko'ringan so'zlarining mavjud emasligi”, - deb tushuntiradi. [2] Tadqiqotchi lakunalarni mazkur jamiyatda tushunchalarining mavjudligi, biroq ularni ifodalovchi so'zlarining yo'qligi, bunday tushunchalar uchun boshqa tilda alohida leksik ifodalarning mavjud bo'lishi deb hisoblaydi. Lakunalarga misol tariqasida fransuz tilida rus tiliga qiyosan сутка va юннаток so'zlarining mavjud emasligini keltiradi.[3] Lakunalar tilda zid so'zlar, lakunalar, oraliqlar yoki til xanitasidagi oq dog'lar, tarjimasiz so'zlar, muqobilsizlar, nol so'zlar yoki fonli leksika deb yuritilganini kuzatishimiz mumkin. S.Maxov va S.Florinlar lakuna hofisasini ifoda vositalarining alohida kategoriyasi bo'lgan realiyalar, ya'mi 'biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo'lmasan siz va so'z birikmalari sifatida talqin qilishgan.[3] Muayyan xalqning madaniyatida boshqqa madaniyat vakillari